

Doimiy ishsiz yoshlarga multikultivatorlar topshirildi

// 24 June 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/doimiy-ishsiz-yoshlarga-multikultivatorlar-topshirildi>



Ma'lumki, "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, qo'llab-quvvatlash zarur bo'lgan, og'ir toifadagi yoshlar bilan ishlashda bir qancha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, Jamiyatga birlashtirilgan mahallalarda istiqomat qilayotgan og'ir toifadagi yoshlardan muntazam xabar olib turilib, ularning muammolarini tinglash, yechim topish, ruhan va moddiy qo'llab-quvvatlash kabi xayrli ishlar olib borilyapti. Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida ularning iltimoslari tinglangan edi.



Yoshlarning iltimoslari bosqichma-bosqich o'z ijobiy yechimini topmoqda. Kuni kecha "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan Toshkent viloyati Parkent tumanining Ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 3-sektor shtabida mazkur tuman mahallalaridan biriktirilgan yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv so'ngida "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida ularning bildirgan iltimoslari qanoatlantirilib, 3 nafar doimiy ishsiz yoshlarga dehqonchilik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun maxsus texnika - 3 ta multikultivator topshirildi. Bu, o'z navbatida, ularning bandligini ta'minlashga va doimiy daromadga ega bo'lishlariga hissa qo'shadi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati